



ТАБИАТ ВА УНГА ИНСОН ОМИЛИНИНГ ТА 'СИРИ

Ashurov Abdumurod

Toshkent Davlat Transport universiteti 2-bosqich talabasi

Ekologiya dunyo bo'ylab tabiiy resurslarning, moddiy mahsulotlar va xizmatlar oqimida yetarlicha ehtiyotkorlik choralarini ko'rish, tabiiy muhitni saqlab qolish va insoniyatning kapitalistik faoliyatidan kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish, oldini olish va tuzatish uchun qilinadigan amaliyotlarning barchasidir. Ekologik muammolarning ko'pgina asosiy sabablaridan biri insoniyat faoliyatidir. Bugungi kunda insoniyat ko'plab sohalarda katta yutuqlarga erishayotgan va kashfiyotlar qilayotgan bo'lsa-da, ekologiya sohasida yirik muammolar hamon o'z yechimini kutmoqda. Shubhasiz bunday global darajadagi muammoni hal etish uchun umuminsoniy yakdil dasturlar ishlab chiqilishini bugungi tarixiy vaziyat taqozo etmoqda. Sababi, sayyoramizdag'i ekotizim shunday tuzilganki, bir davlatdag'i ayni sohaga doir islohotlar yoki shavqatsizliklar nafaqat o'sha hudud aholisi, balki, uning atrofida joylashgan bir necha yuz kilometrlik hududdagi mintaqalarga ham o'zining ma'lum ta'sirini ko'rsatadi. Demak, tabiat va inson o'rtaсидаги ijtimoiy munosabatni tartibga soluvchi qonunchilik tizimi butun sayyora uchun yagona standartlar asosida ishlab chiqilishi shart.

Albatta bu kabi rad etib bo'lmas jiddiy global muammoni bartaraf etish maqsadida ko'plab xalqaro konvensiyalar yaratilmoqda va yurtimizdag'i barcha sohaga doir islohotlar aynan ekologik omillar va faktorlarni hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda. Bu kabi konvensiyalardan misol qilib "Parij Konvensiyasi"ni ko'rsatish mumkin. Bu hujjatga huquqiy tarafdan qaraydigan bo'lsak, "Parij Konvensiyasi"ni iqlim o'zgarishi sohasidagi yirik xalqaro shartnomasi sifatida ko'rsatish mumkin.

Chunki, konvensiya 2015-yilning 12-dekabr sanasida Fransyaning Parij shahrida BMTning iqlim o'zgarish bo'yicha 21-xalqaro konferensiyasida 196ta davlat tomonidan qabul qilingan. Shundan so'ng u 2016-yilning 4-noyabr kunida kuchga kirdi.

Bu konvensianing asosiy maqsadi iqlimni sanoat davridan oldingi ko'rsatkichlardan 2°C ga tushirishdir.

Xarakterli jihat shundaki, Parijda tasdiqlangan konvensiya xalqaro huquq sohasida ilk bor iqlim o'zgarishi sohasidagi barcha BMTga a'zo davlatlar tomonidan bir ovozda qabul qilingan xalqaro bitim edi. Konvensiyaga a'zo davlatlar tomonidan



bugungi kunda ko'plab amaliy, huquqiy, texnologik va moliyaviy harakatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Parij kelishuvi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun O'zbekiston yoqilg'i-energetika resurslarini tejashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun mustahkam asos bo'lgan qonun hujjatlarini qabul qildi. Masalan, ishlab chiqarish quvvatlarini va energiyani ko'p talab qiluvchi ishlab chiqarishlarni modernizatsiya va yangilash, elektr tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan innovatsion texnologiyalar (quyosh kollektorlari, kichik gidroelektr bloklari va biogaz stansiyalari, shamol) foydalanishni kengaytirish. tegirmonlar va boshqalar) milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va boshqalar.

Quyida "Parij Konvensiyasi" bo'yicha O'zbekistondagi huquqiy islohotlarni ko'rib chiqamiz:

1. 2030yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini amalga oshirish bo'yicha choratadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022 yildagi PQ-436-sonli qarori.

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash Dasturi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammoli masalalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o'sish va kambag'allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, ushbu yo'nalishda mamlakatda iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish va unga moslashish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralarini jadallashtirish, "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish modelini targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada, mamlakatda "yashil" iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, "yashil" investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlangan.

2020-yilda koronavirus (COVID-19) pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan epidemiologik vaziyat sababli dunyo mamlakatlari qatori O'zbekiston Respublikasida ham ushbu Strategiyani jadal amalga oshirish imkoniyati cheklandi.

Shu bilan bir qatorda, 2021-yil noyabr oyida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasining 26-yig'ilishida



(COR26) O‘zbekiston Respublikasi tomonidan Parij bitimi doirasida 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligida issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yilgi ko‘rsatkichlarga nisbatan 35 foiz kamaytirish bo‘yicha qo‘sishma majburiyatni o‘z zimmasiga olishi haqida bayonot berildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi joriy yilning may oyida 2030-yilga qadar metan emissiyasini 2020-yilga nisbatan kamida 30 foizga kamaytirish bo‘yicha mamlakatlarning jamoaviy maqsadga erishishi bo‘yicha global majburiyat to‘g‘risidagi tashabbusga (Global Methane Pledge) qo‘sildi.

Koronavirus pandemiyasi va iqlim o‘zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan salbiy holatlarning saboqlari iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda yanada barqaror manbalar va yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish, xususan, mamlakatda “yashil” iqtisodiyot va “yashil” iqtisodiy o‘sish bo‘yicha strategik maqsadlar va chora-tadbirlar amalga oshirilishini samarali tashkil etish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

2019- 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi asosida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, shuningdek, ushbu yo‘nalishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikdagi muvofiqlashtirilgan sa’y-harakatlarini ta’minlash Dasturni ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Bu kabi qarorning qabul qilinishi shubhasiz, mavjud muammoni yumshatish, kerak bo’lsa hal etish uchun keyingi harakatlarda bosh “yo‘l xaritasi” bo‘lib xizmat qiladi.

2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Qonunning 1-moddasida keltirib o’tilganidek, qonunning maqsadiqayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Demak, ayni ekologik sohadagi reformalar energetika sohasida ham qaysidir ma’noda yangi davr boshlanishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, qayat tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organi sifatida Energetika Vazirligi e’tirof etildi (qayat tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 7-modda). Shuningdek, hududlardagi vakolatlar bo‘yicha mahalliy davlat hokimiyati organlariga ham bir qator vakolatlar berildi.

Xarakterli jihat shundaki, hukumat qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni ommalashtirish maqsadida shu turdagи qurilmalardan foydalanuvchi yer uchastkalariga soliq imtiyozlari bermoqda. Masalan, shu turdagи energetik



resurslardan foydalanuvchi jismoniy shaxslar umumiyligi tarmoqdan uzilgan oydan boshlab 3 yil davomida yer va mulk soliqlaridan ozod etiladi (joriy qonunning 14-moddasi). Ayni shu norma bo'yicha quyidagi tizim asosida ish olib borilsa, amalda ijobiy va sezilarli o'zgarishlar yaratiladi:

1) Ayni shu imtiyozlarni hisobga olgan holda , lokal tarmoqdan uzoqda joylashgan qishloqlar va ovullardagi aholiga vakolatli organlar tomonidan tushuntirish ishlarini olib borish

2) Shu kabi hududlardagi davlat organlari binolarini umumiyligi tarmoqdan ajratish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish

3) Shu kabi hududlardagi yuridik va jismoniy shaxslarga shu kabi qurilmalarni yetkazib beruvchi qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilarga turli ko'rinishdagi subsidiyalar ajratish yoki soliq imtiyozlari berish

4) Soha uchun kerakli kadrlarning katta qatlarni yaratishda milliy va xalqaro oliv o'quv yurtlari bilan hamkorlik

Shu kabi bir necha qo'shimchalar kiritilgan taqdirda katta ehtimol bilan lokal tarmoqlarda markazlashishga erishiladi va energiyani toplash hamda uzatish jarayonlaridagi energiyaviy va sarmoyaviy chiqimlar kamayishiga erishiladi.

Umuman olganda, energetika boshqa sohalarga qaraganda ekologiga nisbatan eng yaqin soha hisoblanadi.Demak, aynan energetik islohot va inqiloblarga erishilgan taqdirda yurtimizda ekologik holatni yaxshilash birmuncha oddiy protsesga aylanadi.

Ko'rib turipmizki, oldimizdagi vazifalar ulkan va rad etib bo'lmasdir.

Zero bu kabi islohotlar davlat siyosati darajasida bo'lmay, xalqaro huquqiy majburiyatlarni yuklovchi jarayonlardir.Shunday ekan, ekologik va energetik islohotlarda har birimiz faol kuzatuvchi, imkon bo'lsa ishtirokchi bo'lishimiz zarur.

Foydalaniqan adabiyotlar:

1. [HTTPS://LEX.UZ/ QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH TO'G'RISIDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI](https://LEX.UZ/QAYTA_TIKLANUVCHI_ENERGIYA_MANBALARIDAN_FOYDALANISH_TO'G'RISIDAGI_O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI_QONUNI)
2. [HTTPS://UNFCCC.INT/](https://UNFCCC.INT/)